**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V. B.INING BUYRUG'I**

2023 yil “19” dekabr 02282 - son

**“Rinoplastika va bosh va bo‘yinning tug‘ma nuqsonlari bo‘yicha O‘zbekiston-Turkiya” ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-sentabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-6309-sonli Farmoni va 2019-yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi “Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 24-sonli qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida

**B U Y U R A M A N :**

1. “Rinoplastika va bosh va bo‘yinning tug‘ma nuqsonlari bo‘yicha O‘zbekiston-Turkiya” mavzusida konferensiyasi (keyingi o‘rinlarda - konferensiya) 2023-yil 28-dekabrda xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlari bilan TTA o‘rtasida imzolangan memorandumlar doirasida ilm-fan sohasida o‘rnatilgan samarali xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlash va o‘zaro tajriba almashish maqsadida O‘zbekiston lab va tanglay yoriqlari jamiyati a’zolari, Toshkent tibbiyot akademiyasi otorinolaringologiya kafedrasi, CHINOR tibbiyot markazi hamda Turkiya davlati yetakchi tibbiyot universitetlari bilan hamkorlikda TTA Otorinolaringologiya kafedrasida o‘tkazilsin.
2. Konferensiya va mahorat darsiga tayyorgarlik ko‘rish, tashkillashtirish va uni o‘tkazish uchun Otorinolaringologiya kafedrasi mudiri U.S.Xasanov, kafedra professori Shayxova X.E., kafedra dotsenti M.M.Jafarov, kafedra dotsenti Ergashev U.M., kafedra dotsenti Abdullayeva N.N., assistent Maxamadaminova Sh.A.lar mas’ul etib belgilansin.
3. Quyidagilar:

Konferensiya hamda mahorat darsi dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Konferentsiya hamda mahorat darsini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur buyruq ijrosining nazorati O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor v.v.b.** **Sh.Boymuradov**

**Buyruq kelishuvi**

**Tayyorladi:**
**U.Xasanov** **Kafedra mudiri**

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| **Z.Muminova** | **Bo‘lim boshlig‘i** |
| **F.Azizova** | **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor** |
| **M.Jafarov** | **Bo‘lim boshlig‘i** |
| **Sh.Islomqulova** | **Yuriskonsult** |